

O'QUVCHILARDA MEHNAT FAOLIYATI ORQALI KASBIY LAYOQATNI RIVOJLANTIRISHNING TARBIYAVIY ASOSLARI.

Qurbonova Mavjuda Muhiddinovna

OXU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarda mehnat faoliyati jarayonida kasbiy layoqatni rivojlantirishning tarbiyaviy asoslari yoritilgan. Mehnatga o'rgatish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarda mas'uliyat, mustaqillik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada mehnat faoliyatining ta'limiy va tarbiyaviy funksiyalari, mehnat jarayonida kasbiy qiziqish va layoqatning bosqichma-bosqich shakllanishi, shuningdek, o'qituvchining pedagogic yondashuvlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda mehnat faoliyati orqali kasbiy yo'nalishni aniqlash, kasb tanlashga ongli yondashuvni shakllantirish, amaliy mashg'ulotlar, loyiha ishlari va interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi ochib beriladi. Shuningdek, maktab muhitida mehnat atrbiasining metodik ta'minoti, pedagogik shart-sharoitlar hamda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda kasbiy layoqatni rivojlantirish mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: mehnat faoliyati, kasbiy layoqat, mehnat tarbiyasi, kasbga yo'naltirish, kompetendsiya, pedagogic yondashuv, amaliy mashg'ulot, kasbiy qiziqish, kasn tanlash, shaxsiy rivojlanish, mehnatsevarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, o'quvchi faoliyat, tarbiyaviy jarayon, metodik ta'minot, ta'lim jarayoni, kasbiy shakllanish, mehnat madaniyati.

ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПРИГОДНОСТИ УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ ТРУДОВУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ.

Аннотация: В данной работе рассматриваются воспитательные основы развития профессиональной пригодности учащихся через трудовую деятельность. Труд выступает важнейшим педагогическим средством способствующим формированию у школьников ответственности дисциплинированности самостоятельности и положительного отношения к будущей профессии. Раскрываются педагогические условия при которых трудовая деятельность становится эффективным фактором профессионального самоопределения создание мотивирующей образовательной среды опора на возрастные особенности учащихся интеграция учебного и практического труда сотрудничество семьи и школы. Особое внимание уделено формированию трудовых навыков развитию профессиональных интересов и воспитанию ценностного отношения к труду. Аннотация подчеркивает значимость трудовой подготовки в становлении личности учащегося и повышении его готовности к дальнейшей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: трудовая деятельность профессиональная компетентность профессиональная пригодность развитие учащихся воспитательные основы воспитательный процесс трудовое воспитание трудовые навыки формирование профессиональных качеств мотивация к труду образовательная среда практическая деятельность личностное развитие профориентация педагогическая поддержка.

EDUCATIONAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS PROFESSIONAL COMPETENCE THROUGH LABOR ACTIVITY

Abstract: *This work explores the educational foundations for developing students professional competence through labor activities. It analyzes the content and principles of labor education, as well as its role within the system of continuous education, emphasizing labor activity as an important factor in the holistic development of students' personalities. The study substantiates the significance of the learning process, extracurricular clubs, project-based learning, and practical training in fostering students' work-related skills, professional interests, and hand-on abilities. Special attention is given to mechanisms that cultivate personal qualities such as responsibility, discipline, initiative, and teamwork through students' engagement in various forms of labor activity. The work also highlights pedagogical approaches, educational methods, and the importance of psychological and pedagogical support in guiding students toward appropriate career choices.*

Key words: *labor education, professional competence, vocational aptitude, students' development, educational foundations, practical skills, career guidance, project-based learning, work activity, responsibility, discipline, initiative, teamwork, pedagogical support, continuous education.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarda kasbiy layoqatni shakllantirish eng muhim pedagogik vazifalardan biridir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev aytganlaridek, "Biz shunday sharoit yaratmoqdamizki- ishsiz fuqarolar kasblarni o'rganib, munosib o'rin topishlari mumkin.

Foydalining uddasidan chiqsangiz : kasb egasi bo'lsangiz, ish sizni emas-siz ishni qidirasiz" so'zlari ayni haqiqat.

Kasbiy layoqat- bu shaxsning muayyan kasbni muvaffaqiyatli egallashi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, qobiliyat va psixologik sifatlar majmuasi bo'lib, uning mehnat faoliyatiga tayyorgarligini belgilaydi.

Mehnat faoliyati esa o'quvchilarni mas'uliyatli, tashabbuskor, mehnatsevar bo'lib yetishishiga xizmat qiluvchi samarali tarbiyaviy vositadir.

Shu sababli mehnat tarbiyasi jarayonida kasbiy layoqatni rivojlantirish mexanizmlarini o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

1.Mehnat faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati.

Mehnat faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati- bu mehnat jarayoning shaxs kamolotiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri, ya'ni mehnat orqali insonning axloqiy, irodaviy, intellektual va ijtimoiy sifatlari shakllanishidir.

Mehnat pedagogikaning eng muhim tarbiyaviy vositalaridan biri sanaladi. Mehnat faoliyati o'quvchilarda mas'uliyat, tartiblilik, fidoyilik, jamoada ishlash madaniyati, mustaqil qaror qabul qilish va tashabbuskorlik, sabr-toqat, matonqt va intizom kabi sifatlarni shakllantiradi.

Kasbiy layoqat esa o'quvchining tanlagan kasbni egallashga bo'lgan moyilligi, qobiliyati, psixologik va intellektual salohiyatining uyg'unlashuvini bildiradi. Mehnat faoliyati kasbiy layoqatni rivojlantiruvchi asosiy pedagogik jarayon hisoblanadi. Mehnat tarbiyasi- BU o'quvchilarda mehnatga bo'lgan ongli munosabatni, mehnatsevarlikni, kasbiy qiziqish va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Mehnat tarbiyasi shaxsning ijtimoiylashuvida muhim o'rin tutadi va uni hayotga, mustaqil faoliyatga tayyorlaydi. Mehnat faoliyati tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi bo'lib, u orqali o'quvchilarda ijtimoiy foydali mehnatga munosabat shakllanadi. Mehnat tarbiyasi:

- vatanparvarlik
- jamoatchilik
- intizomlilik
- halollik kabi sifatlarni rivojlantiradi.

Kasbiy layoqat aynan tarbiyaviy muhitda, mehnat jarayonida shakllanadi.

Pedagogika fanida mehnat tarbiyasi quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- mehnatning ijtimoiy ahamiyatini anglash
- jamo bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish
- kasbiy faoliyatga tayyorgarlik
- mehnat madaniyati va intizomini shakllantirish.

Mehnat tarbiyasi nafaqat dars jarayonida, balki darsdan tashqari faoliyat, to'garaklar, amaliy mashg'ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti orqali amalga oshiriladi.

2. Mehnat orqali kasbga yo'naltirishning tarbiyaviy mexanizmlari

O'quvchilarda kasbiy layoqatni shakllantirish quyidagi tarbiyaviy mexanizmlar asosida amalga oshiriladi.

a) Amaliy faoliyat- O'quvchilarda mehnat darslarida amaliy vazifalarni bajarish orqali kasbning mohiyatini angelaydi, zarur ko'nikmalarni egallaydi. Amaliy mashg'ulotlar shaxsning kasbiy qiziqishini mustahkamlaydi.

b) Kasbga yo'naltirish tadbirlari- Uchrashuvlar, kasb ko'rgazmalari, ustioz-shogird an'analari, ishlab chiqarish korxonalariga tashriflar o'quvchilarning real kasb muhiti bilan tanishuviga imkon beradi.

c) Mehnat tarbiyasi orqali shaxsiy sifatlarni shakllantirish- Mehnat jarayonida o'quvchilar intizom, mas'uliyat, mehnatsevarlik kabi tarbiyaviy sifatlarni egallaydi. Bu fazilatlar ularning kelajak kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

d) Differensial yondashuv – Har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, psixologik xususiyatlari farqlidir. O'qituvchi mehnat topshiriqlarini individual yondashuv asosida tashkil qilganda kasbiy layoqat samaraliroq shakllanadi.

Mehnat faoliyati shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi muhim omil hisoblanadi. U o'quvchining aqliy rivojlanishini, jismoniy chiniqishini, irodaviy sifatlarini, axloqiy fazilarlarini shakllantiradi.

Mehnat jarayonida o'quvchi qiyinchiliklarni yengishga, mas'uliyatni his qilishga, natijaga erishish uchun intilishga o'rganadi. Bu esa uning kasbiy layoqatini aniqlash va rivojlantirish uchun muhim shart-sharoit yaratadi.

3. O'quvchilarda mehnat ko'nikmalari va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Kasbiy layoqat- bu shaxsning muayyan kasb yoki faoliyat turini muvaffaqiyatli egallash va amalga oshirish imkonini beruvchi individual psixologik, jismoniy va aqliy xususiyatlar majmuasidir. Kasbiy layoqat tug'ma va orttirilgan omillar asosida shakllanadi.

Kasbiy layoqat quyidagilar bilan belgilanadi:

- qiziqish va moyillik
- bilim va ko'nikmalar
- psixologik barqarorlik
- ijodiy fikrlash
- mas'uliyat va intizom

Kasbiy layoqatning tarkibiy qismlari quyidagilar:

Kognitiv komponent- kasbga oid bilimlar, nazariy tushunchalar.

Amaliy-kompetensiyaviy komponent-mehnat jarayonida bajariladigan amaliy faoliyatlar, texnologik ko'nikmalar.

Motivatsion – kommunikativ komponent- Kasbga bo'lgan qiziqish, motivatsiya, jamoa bilan ishlash ko'nikmalari.

Shaxsiy – irodaviy komponent- mas'uliyat intizom, mustaqillik, mehnatsevarlik.

Mehnat faoliyatida ushbu komponentlar integrallashib boradi va o'quvchilarda kasbiy tayyorgarlikning poydevori yaratiladi.

4. Mehnat faoliyati orqali kasbiy layoqatni rivojlantirish bo'yicha pedagogik shart-sharoitlar.

- ta'limda amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish,
- o'quvchilarning qiziqishlari asosida mehnat faoliyatlarini tashkil etish,
- kasbga yo'naltirish tizimini maktabda muntazam yo'lga qo'yish,
- mahalliy ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik,
- zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish,
- o'qituvchining shaxsiy namunasi

Kasbiy layoqatni rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

1. Boshlang'ich bosqich- mehnatga umumiy qiziqishni shakllantirish.

2. Yo'naltiruvchi bosqich- turli kasblar bilan tanishtirish.

3. Aniqlashtiruvchi bosqich- o'quvchining individual qobiliyatlarini aniqlash.

4. Mustahkamlovchi bosqich- tanlangan kasbga mos bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish.

Xulosa : O'quvchilarda mehnat faoliyati orqali kasbiy layoqatni rivojlantirish- bu ularning nafaqat amaliy mehnat ko'nikmalarini, balki mas'uliyat, mehnatsevarlik , ijodkorlik kabi shaxsiy sifatlarini ham shakllantiradigan muhimtarbiyaviy jarayondir.

Maktabda mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish o'quvchilarning kelajak kasb tanlovi va professional tayyorgarligiga be'vosita ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik jarayonada mehnat faoliyatining tarbiyaviy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish yosh avlodning kasbiy yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi " Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.- Toshkent:Ma'naviyat,2008.
3. JalolovJ. Pedagogika asoslari.- Toshkent: Fan, 2019.
4. Hasanboyeva D. Kasbga yo'naltirish pedagogikasi.- Toshkent, 2020.